



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.2 № 4

2025

“MAISHIY DISKURS”NING TILSHUNOSLIKNING MUSTAQIL OBYEKTI SIFATIDA E’TIROF ETILISHI

Xasanova Dilnoza Tojiddinovna
Andion davlat universiteti o’qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada maishiy diskursning tilshunoslikdagi o’rni, uning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari hamda mustaqil tadqiqot ob’ekti sifatida shakllanishi tahlil qilinadi. Maishiy nutqning struktur va funksional xususiyatlari, uning til birliklari, strategiya va taktikalari ko’rib chiqiladi. Zamonaviy diskurs nazariyasida maishiy diskursning alohida yo’nalish sifatida tadqiq etilishi ilmiy asoslar bilan yoritiladi.

Kalit so’zlar: diskurs, maishiy diskurs, pragmatika, kommunikatsiya, nutq aktlari, til birliklari, ijtimoiy muloqot, strategiyalar.

ПРИЗНАНИЕ «БЫТОВОГО ДИСКУРСА» КАК САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБЪЕКТА ЛИНГВИСТИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ

Хасанова Дильноза Тождиновна
Андижанский государственный университет, преподаватель

Аннотация

В данной статье анализируются место бытового дискурса в лингвистике, его коммуникативно-прагматические особенности, а также формирование его как самостоятельного объекта исследования. Рассматриваются структурные и функциональные характеристики бытовой речи, её языковые единицы, стратегии и тактики. Исследование бытового дискурса как самостоятельного направления в современной теории дискурса освещается с научных позиций.

Ключевые слова: дискурс, бытовой дискурс, прагматика, коммуникация, речевые акты, языковые единицы, социальное общение, стратегии.

THE RECOGNITION OF “EVERYDAY DISCOURSE” AS AN INDEPENDENT OBJECT OF LINGUISTIC STUDY

Xasanova Dilnoza Tojiddinovna
Andijan State University, Lecturer

Abstract

This article analyzes the place of everyday discourse in linguistics, its communicative and pragmatic features, and its formation as an independent object of research. The structural and functional characteristics of everyday speech, its linguistic units, strategies, and tactics are examined. The study of everyday discourse as a distinct direction within modern discourse theory is presented on a scientific basis.

Keywords: discourse, everyday discourse, pragmatics, communication, speech acts, linguistic units, social interaction, strategies.

Tilshunoslikda “diskurs” tushunchasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab faol qo’llanila boshladi va hozirgi kunda lingvistikaning yetakchi tadqiqot obyektlaridan biri sifatida shakllandi. Diskurs muloqot jarayonidagi nutqiy faoliyat, ijtimoiy-kognitiv omillar,

kommunikativ kontekst va lingvistik vositalarning o‘zaro aloqasini o‘rganishga qaratiladi. “Diskurs” atamasi dastlab falsafa va sotsiologiyada qo‘llangan bo‘lib, keyinchalik tilshunoslikka kirib keldi. T. A. van Deyk diskursni nutqiy faoliyat, matn va kommunikativ vaziyatning birligi sifatida talqin qiladi[2]. Lingvistik nuqtayi nazardan diskurs real kommunikativ vaziyatda yuzaga keladi; ishtirokchilarning ijtimoiy roli va maqsadiga bog‘liq bo‘ladi; pragmatik va kontekstual omillar bilan belgilanadi[3].

Diskursning ilmiy adabiyotlarda siyosiy, diniy, media, reklama, rasmiy-ish yuritish kabi ko‘plab turlari o‘rganilgan bo‘lsa-da, maishiy (kundalik, oddiy) diskursning mustaqil obyekt sifatida o‘rganilishi nisbatan yangi yo‘nalish hisoblanadi.

Kundalik hayotdagi muloqotlar insonning ijtimoiy faoliyatini tashkil etuvchi eng asosiy jarayonlardan biri bo‘lishiga qaramay, uzoq vaqt davomida ilmiy tahlil markazida turmagan. Buning sababi sifatida maishiy nutqning “oddiylik”, “tabiiylik” yoki “strukturasizlik” haqidagi stereotiplar keltiriladi. Biroq zamonaviy lingvistika, ayniqsa, pragmatik lingvistika va sotsiopragmatika yondashuvlari maishiy diskursning murakkab nutqiy mexanizmlarga ega ekanini ko‘rsatdi.

Maishiy diskurs — bu kundalik muloqot jarayonida yuzaga keladigan, norasmiy, ko‘pincha spontan nutq shakllaridan tashkil topgan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi tabiiy kommunikatsiya turidir. Uning asosiy xususiyatlari:

- spontanlik
- kontekstga yuqori darajada bog‘liqlik
- emotsionallik va ekspressivlik
- qisqartmalar, dialektizmlar, og‘zaki so‘zlashuv elementlarining aktiv qo‘llanilishi

- nutq aktlarining ko‘pligi (iltimos, so‘roq, tanbeh, qiziqish bildirish va b.)

Maishiy diskursning asosiy funksiyalari quyidagilar:

- Axborot berish funksiyasi – kundalik ma’lumotlarni almashish.
- Emotiv funksiyasi – his-tuyg‘ularni ifodalash.
- Regulyativ funksiyasi – xulq-atvorni boshqarish, iltimos yoki buyruq orqali ta’sir ko‘rsatish.
- Fatik funksiyasi – muloqotni boshlash, saqlab turish, yakunlash.
- Sotsial identifikatsiya funksiyasi – muloqot jarayonida ijtimoiy rollarni namoyon qilish.

XX asr oxirlarida M. Baxtin, T. van Deyk, E. Goffman, J. Ostin, J. Syorl kabi olimlarning ishlari diskursni faqat matn emas, balki kommunikativ hodisa sifatida tushunish imkonini berdi. M. Baxtin diskursni nutqiy faoliyatning ijtimoiy sharoit bilan bog‘liqligi orqali tushuntirgan edi[4]. Keyinchalik T. van Deyk, E. Goffman, J. Ostin va J. Syorl kabi olimlar diskursni matndan tashqari — ya’ni ijtimoiy, pragmatik va kognitiv jarayonlarni o‘z ichiga olgan murakkab kommunikativ hodisa sifatida talqin qila boshladilar. Shundan so‘ng har bir muloqot sohasi alohida diskurs sifatida tahlil qilina boshladi. Jumladan, Yevropa tilshunos va sotsiologlaridan Mishel Fuko (Fransiya), Brown and Yule (Buyuk Britaniya), Deborah Tannen (AQSH), Erving Goffman (AQSh), Norman Fairclough (Buyuk Britaniya), rossiyalik V.I. Karasik, Tatyana Sherstinova, Maksim Krongauz, Natalya Bogdanova-Beglarian, Georgiy Khazagerov va Mixail Dymarsky kabilar maishiy diskursni o‘rganish bo‘yicha ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar olib borgan.

Maishiy diskurs tushunchasi ilm-fanga quyidagi bosqichlar orqali kirib kelgan:

1. Diskurs tushunchasining fanda paydo bo‘lishi (Fuko, 1960–1970 yillar).
2. Kundalik muloqotga e’tibor (Brown & Yule, Tannen).
3. Maishiy diskurs sifatida tipologik ajratish (Karasik).
4. O‘zbek tilshunosligida bu tushunchaning o‘zbek tiliga tadbiqi va tahlili.

Bu tushuncha bugungi kunda tilni ijtimoiy kontekstda, real foydalanish holatida o'rganish uchun muhim nazariy baza sifatida xizmat qilmoqda.

1990-yillardan boshlab a)konversatsion tahlil, b)pragmatik tahlil, d)etnometodologiya, e)korpus lingvistikasi bo'yicha tadqiqotlar kundalik nutqni ilmiy kuzatuv maydoniga olib kirdi. Tadqiqotchilar maishiy muloqotning o'z strukturasi, strategiya va taktikalarga ega murakkab kommunikativ tizim ekanini isbotladilar. T. van Deykning fikricha, diskursni tahlil qilish faqat matnga qarash bilan cheklanmaydi; unda ijtimoiy kontekst, bilimlar tizimi va kommunikativ niyat muhim o'rin tutadi [2]. Bu yondashuv kundalik nutqni ham ilmiy obyekt sifatida o'rganishga zamin yaratdi. Konversatsion tahlil (Harvey Sacks, Emanuel Shegloff) kundalik suhbatni strukturaviy jihatdan tadqiq etish imkonini berdi. Ular maishiy nutqning o'ziga xos tartib va qoidalar asosida rivojlanishini, replikalar ketma-ketligining tabiiy mexanizmlari mavjudligini ilmiy asosladilar. Jumladan, Sacks kundalik suhbatni navbat almashuvi (turn-taking), ketma-ketlik (sequence), ta'mirlash (repair) kabi strukturaviy mexanizmlar asosida tahlil qiladi. Schegloff suhbatni tizimli, qoidalarga asoslangan ijtimoiy faoliyat sifatida talqin qiladi[5].

Maishiy diskursning mustaqil obyekt sifatida ajralish omillari sifatida jamiyatda kommunikatsion madaniyatning o'sishi; shaxslararo muloqotning mediatizatsiyalashuvi (messenjerlar, ijtimoiy tarmoqlaridagi kundalik suhbatlar); lingvopragmatik va sotsiopragmatik tadqiqotlarning kengayishi; milliy-madaniy nutq me'yorlarini o'rganishga qiziqishning ortishini sanash mumkin. Maishiy nutq — inson hayotida eng ko'p qo'llanadigan, ammo uzoq vaqt davomida tilshunoslikda yetarlicha o'rganilmagan diskurs turi hisoblanadi. Kundalik nutq so'zlovchini bir qarashda tushunishi kerakligi bilan farq qiladi[1]. Uning "oddiyligi" yoki "tabiiyligi" haqidagi stereotiplar sabab bo'lgan, biroq zamonaviy pragmatolingvistika bu sohaning murakkab va izchil tizimga ega ekanini ilmiy isbotlab berdi. Maishiy diskurs — bu norasmiy, ko'pincha spontan tarzda kechadigan kundalik muloqot jarayonidir. U kontekstual bog'liqlik, ellipsislar, emotsional-ekspressiv birliklar, qisqa sintaktik konstruksiyalar, so'zlashuv tiliga xos leksika bilan ajralib turadi.

Maishiy diskursda quyidagi til birliklari faol qo'llanadi:

- so'zlashuv uslubiga xos leksika: "iltimos", "rahmat", "kechirasiz"
- undovlar, modal birliklar: "eh", "voy", "xo'sh", "ha endi"
- qisqa sintaktik konstruksiyalar: "bo'пти", "xo'p", "mayli"
- elliptik gaplar: "Keldilar?" — "Hozir".

Bu birliklar muloqotning samimiy, tabiiy xarakterini yaratadi. Maishiy muloqot quyidagi strategiyalar asosida quriladi:

a)Yaqinlik strategiyasi — iliq munosabatni ifodalaydi, suhbatdoshlar o'rtasida samimiylilik, ishonch va emotsional yaqinlikni ifodalashga xizmat qiladi. Bu strategiya ko'pincha oila a'zolari, yaqin do'stlar o'rtasida qo'llanadi. Masalan: "Yaxshi yuribsanmi?", "Charchab ketding shekilli, dam ol.", "Xo'p, o'zim qilaman."

b) Masofa strategiyasi — hurmat va ehtiyotkorlikni ta'minlaydi, odatda yoshi katta shaxslar, notanish odamlar yoki ijtimoiy mavqei yuqori suhbatdosh bilan muloqotda qo'llanadi: "Agar qarshi bo'lmasangiz, bir savol bermoqchi edim.", "Iltimos, biroz kutib turing." Bu strategiya muloqotda ziddiyatning oldini oladi.

d)Kelishuv strategiyasi — muloqotda kelishmovchilikni yumshatadi, bahsni konstruktiv yo'nalishga burish uchun ishlatiladi. "To'g'ri, lekin boshqa tomondan qarasak...", "Siz aytganday ham bo'lishi mumkin." Bu strategiya ijtimoiy muvozanatni saqlashga yordam beradi.

e)Fatik strategiyalar — suhbatda axborot almashishdan ko'ra muloqotni davom ettirishga qaratilgan. Ular suhbatdoshni tinglayotganlikni bildiradi. "Ha.", "Tushunarli.", "Xo'sh, keyin nima bo'ldi?" Fatik birliklar suhbatning uzilib qolishiga yo'l qo'ymaydi.

f) Emotsional ta'sir strategiyasi — ohang, intonatsiya, urg'u va pauza orqali suhbatdoshga ta'sir ko'rsatishni ko'zda tutadi. “Voy, rostdanmi?!” (hayrat), “Bunaqa bo'lmasligi kerak edi...” (afsus). Bu strategiya maishiy muloqotda hissiy yaqinlikni kuchaytiradi.

Strategiya va taktikalarning tanlanishi ijtimoiy rollar, yosh, jins va madaniy tajribaga bog'liq. Bu strategiyalar jamiyatning madaniy qadriyatlari va ijtimoiy me'yorlariga bog'liq ravishda shakllanadi [6].

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib shuni aytishimiz mumkinki, maishiy diskurs — zamonaviy lingvistikaning muhim tadqiqot obyektlaridan biridir. Uning lingvistik, sotsial, pragmatik, psixologik jihatlari murakkab tizimni tashkil etadi. Maishiy diskursni mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida o'rganish real nutq jarayonlarini chuqur tahlil qilishga, muloqot madaniyatini oshirishga, tilning dinamik rivojlanish qonuniyatlarini tushunishga katta imkoniyat yaratadi. Zamonaviy lingvistika bu diskurs turining o'ziga xos struktura, strategiya va til birliklariga ega ekanini ilmiy asoslar bilan isbotladi. Shuning uchun ham maishiy diskurs bugungi kunda tilshunoslikning mustaqil obyektlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Uning chuqur o'rganilishi tilning real ishlatilish jarayonlarini aniqlash, nutqiy madaniyatni rivojlantirish va muloqot samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Карасик В. И. О типах дискурса // Языковая личность: институциональный и персональный дискурс: сб. науч. тр. — Волгоград: Перемена, 2000. — С. 5–20.
2. Van Dijk T. A. Discourse and Context: A Sociocognitive Approach. — Cambridge: Cambridge University Press, 2008.
3. Brown G., Yule G. Discourse Analysis. — London: Cambridge University Press, 1983.
4. Бахтин М. М. Эстетика словесного творчества. — М.: Искусство, 1979. — С. 250–252.
5. Sacks H. Lectures on Conversation. Vol. I–II. — Oxford: Blackwell, 1992.
6. Иссерс О. С. Коммуникативные стратегии и тактики русской речи. — М.: ЛКИ, 2008.